

“BUXORO AMIRLIGINING TASHQI SAVDO MUNOSABATLARI TARIXI”.

Rahmatilloev Nusratillo Hikmatillo o'g'li
Buxoro davlat universiteti magistri.

Annotatsiya: Buxoro amirligida mavjud bo'lgan iqtisodiy hayot va ayniqsa undagi soliq tizimi hamda xorijiy davlatlar bilan olib borilgan tashqi savdo aloqalari bevosita amirlik davrida va undan keyingi davrlardan toki bugungi kungacha doimo tarixchi-olimlar va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolani o'rganish orqali Buxoro amirligidagi tashqi savdo va uning amirlik hayotidagi ahamiyati haqida muhim ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Orenburg, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, karvonsaroy, boj, tagjoy puli, zakot, Pyotr I, Amir Nasrullo, Amir Muzaffar.

Buxoro amirligi — Buxoro xonligini 1756- yildan keyingi nomi; o'zbek sulolasi ashtarxoniylar o'rniga kelgan o'zbek mang'itlar sulolasi vakillari o'zlarini amir deb atashgan. Shunga ko'ra, davlat Buxoro Amirligi deb atala boshlangan. 1920-yil Buxoro bosqini natijasida tugatilgan. Tarixiy manbalardan ma'lumki, ashtarxoniylar sulolasi hukm surgan davrda, ayniqsa, uning oxirgi vakillaridan biri Abulfayzxon hukmronligi yillarida (1711-1747) davlatda o'zboshimchalik, boshboshdoqlik, o'zbek qabila-urug'lari o'rtasida hokimiyat uchun kurash, ayrim hududlarning mustaqillikka bo'lgan intilishlarining kuchayishi bilan bog'liq holatlar Buxoro davlatini ham ichki ham tashqi siyosatda to'la tanazzul yoqasiga olib kelgan edi¹.

O'zaro nizolarga qaramasdan Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida elchilik aloqalar savdo sotiq munosabatlar to'xtab qolgani yo'q bunga misol 1826-yilda Istambulbiy boshchiligida elchilik munosabatlarini va 1830-yillardagi malumotlarga ko'ra Buxoro amirligi savdogarlarining qo'qon xonligi bozorlarida 1 botmon (botmon arabcha so'z bo'lib olg'irlik o'lchov birligi bir botmon 8 pudga teng) .guruchni 32 34 tangadan sotganini ko'rishimiz mumkin².

1903-yilda Buxoroga tashrif buyurgan amerikalik tadqiqotchi, arxeolog Roberd Bird Buxoro amirligining ijtimoiy va iqtisodiy hayoti masalalari, o'z sayohati davomida guvoh bo'lgan aholining urf-odat va an'analari, yurish turishi, dehqonchilik tartibi, hunarmandchilik va savdo sotig'i, bundan tashqari, Bird Buxoro va Samarqand shaharlari tuzilishi, ularning ijtimoiy hayoti, tarixiy obidalari, masjid va madrasalar, turar joylar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Shu bilan birga Buxoro amirligida ijtimoiy-madaniy jarayonlarni tadqiq qilgan britaniyalik diplomat, sharqshunos tadqiqotchi Richard Frensis Bertoni (1821-1890) tilga olish lozim. R.F. Berton 1860-

¹ Rahmatilloev Nusratillo Hikmatillo o'g'li “Buxoro amirligida soliq tizimi” *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(3), 115–121.

² Ashurov, O. (2022). QO'QON XONI MUHAMMADALIXON DAVRIDA SAVDO MUNOSABATLARI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(24), 107–108.

1861-yillarda O`rta Osiyoga, Eronga, Afg`onistonga va Hindstonga tashrif buyurgan, shu bilan birga 1860-yilning yozida Samarqandda ham bo`lgan R.F. Berton Buxoro amirligining ko`p shahrlarini, tarixiy obidalarini, islom arxitekturasini, masjid va madrasalarni, xonaqoh, maqbara va hammomlarni tasvirlaydi. Ayniqsa, uning “Two Thousand Miles in Persia, Turkestan, and Central Asia” (Persiya, Turkiston va O`rta Osiyo bo`ylab ikki ming mil) nomli asarida keltirgan Buxoro amirligi aholisining hayoti, mashg`ulotlari, dehqonchilik va hunarmandchilik an`analari, chorvachilik, mahalliy bozor, Buxoroning Xitoy, Rossiya, Eron va Hindiston bilan tashqi savdo aloqalari haqidagi qimmatli ma`lumotlari muhim ahamiyatga faktlarga e`tibor qaratilganligiga guvoh bo`lishimiz mumkin.³ XVIII asrning birinchi yarmida Rossiyaning O`rta Osiyo bilan savdo aloqalari kengaya boradi. Rus savdosini O`rta Osiyo xonliklari tovarlari bilan yanada ko`proq hamda keyinchalik Turkiston va Qozoq dashti ustidan nazorat o`rnatish maqsadida Orenburg shahrining qurilishi boshlab yuboriladi. N.I.Neplyuyev, P.I.Richkov va K.M.Tevkelev rahbarligida Hindiston bilan savdoni yo`lga qo`yish maqsadida maxsus kompaniya tashkil qilinadi. Orenburg ekspeditsiyasi rahbari, mashhur rus geografi I.Kirilov Buxoroni Osiyoning savdo markazi sifatidagi ahamiyatiga yuqori baho berib, uning qo`shni Sharq davlatlari bilan aloqalardagi rolini ta`kidlab o`tgan edi. Mashhur rus geografi P.I.Richkov Buxoroning Hindiston bilan savdo aloqasida Orenburgning ahamiyatini alohida ta`kidlab o`tadi. U, butun Sharqiy Hindistonda yashayotgan xalqlar rus va boshqa g`arb tovarlarini faqat Orenburg va Buxoro orqaligina to`g`ridan-to`g`ri va arzon narxda bu qadar ko`p miqdorda va arzon narxda sotib olishi mumkin, deb ta`kidlagan edi. Rus sayyohi va ofitseri T.S.Burnashev Rus hukumatining topshirig`iga ko`ra, 1794 yili Buxoroda bo`lgan edi. U Buxoroda bo`lgan vaqtida u yerga savdo qilish uchun Afg`oniston, Eron, Hindiston va boshqa yurtlardan kelgan turli millat vakillarini ko`rgan. Burnashev Buxoroda joylashgan bozorlar to`g`risida yozib qoldirgan. Agarda Yefremovning sayohati davrida Buxoroda 4 ta g`isht karvon-saroy bo`lgan bo`lsa, Burnashev davrida ularning soni 9 ta bo`lgan. Karvon-saroilar sonining ortib borishiga e`tiborni qaratsak, Buxoroning tashqi iqtisodiy aloqalarining o`sib borganligi to`g`risidagi taasurotga ega bo`lamiz. Burnashevning ma`lumotlariga ko`ra, Buxoro Hindiston va Erondan tillo, kumush va hind malmali olgan. Buxoro Eronga qorako`l terisi va boshqa tovarlar eksport qilgan. Burnashev Buxoroga keltiriladigan chet el tovarlaridan qirqdan bir miqdorida boj solig`i olinishini eslatib o`tadi. Rus savdogarlari esa o`z mablag`idan yigirmadan bir miqdorida soliq to`lagan.⁴

Amir Haydar hukmronligi davrida O`rta Osiyo davlatlari –Xiva va Qo`qon xonliklari, Rossiya, Eron, Afg`oniston, Xitoy hamda Usmoniylar davlati bilan xalqaro iqtisodiy, madaniy va siyosiy-huquqiy munosabatlarni shakllantirish maqsadida

³ Rahmatilloev Nusratillo Hikmatillo o`g`li “Buxoro amirligida soliq tizimi tarixi va tarixshunosligi” magistrlik dissertatsiyasi. Buxoro- 2024. 29-30 betlar

⁴ Rahmatilloev Nusratillo Hikmatillo o`g`li. “Buxoro amirligidagi savdo munosabatlari chet el sayyohlari nigohida” Pedagogik akmeologiya 3-nashri. 2024-yil

elchilik aloqalarini yanada mustahkamlashga harakat qilingan. U o'z sulolasidan bo'lgan boshqa amirlardan farqli o'laroq, mang'itlar hukmronligini mustahkamlash, ichki va tashqi muxoliflarga qarshi kurashda qatormuvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga erishgan davlat boshlig'i sifatida ajralib turadi⁵.

Buxorodan Qo'qonga asosan, paxta xom ashyosi, qorako'l teri, ip-gazlama, chit kabi tovarlar olib borilgan. Shuningdek, Qo'qon xonligiga Buxoro amirligi bozorlari va hududi orqali hind, afg'on, fore, arab va tok mahsulotlari ham kirib kelgan. Qo'qondan Buxoroga esa ipak, ipak matolar, mevalar, guruch, Xitoy va Qashqardan keltirilgan ipak matolar, qandil buyumlar olib kelingan.

Qo'qon xonligini Buxoro amirligini bog'lagan ikki yirik karvon yo'li mavjud edi. Ulardan birinchisida, Qo'qondan chiqqan karvon Beshariq, Mahram, Xo'jand, O'ratepa, Zomin, Jizzax, Samarqand orqali o'tib Buxoroga borgan, ikkinchisida, Qo'qondan chiqqan karvon Beshariq, Mahram, Xo'jand, O'ratepa, Jom, Ravot, Jizzax, Yangiqo'Tg'on, Samarqand orqali Buxoroga kelgan. Birinchi karvon yo'li 526 verst masofadan iborat bo'lgan, ikkinchi karvon yo'li 615 verst edi. Qo'qon -Buxoro orasida karvonlar 20-23 kun atrofida manzilga yetib borgan va bu yo'llarda tuya, otlar bilan birga aravalardan ham foydalanilgan. Buxorodan Qo'qon karvonidagi tuyalarning har biri uchun 2,5-3 tillo tanga yuk haqi olingan. Qo'qon xonligining yirik shaharlaridan biri Toshkentdan ham Buxoro amirligi shaharlariga boradigan alohida karvon yo'llari mavjud edi. Toshkentdan chiqqan karvon Jizzax, Yangiqo'rqon, Arabxona orqali Buxoroga kelgan. Qo'qon va Xiva xonliklari o'rtasida kam bo'lsa ham kichik-kichik karvonlar yil bo'yi borib turgan. Ular asosan Buxoro -Xiva karvon yo'lidan foydalangan bo'lib, Buxordan Xivagacha 340 verst masofa bo'lgan va karvon bu yo'lni 10 kunda bosib o'tgan. Ayniqsa, 19-asrning 80-yillari –20-asr boshlaridan Turkistonda, ya'ni O'rta Osiyo xonliklari hududlarida temir yo'llar qurilishi natijasida rus tovarlari uchun mahalliy bozorlarga keng yo'l ochildi. Ko'pgina mahalliy hunarmandchilik ustaxonalari og'ir iqtisodiy vaziyatga tushib qoldi. O'troq aholi, ya'ni chig'atoylar, takchilar (tog'chilar) hunarmandchilikning turli sohalari: temirchilik, duradgorlik, to'qimachilik, tikuvchilik, kulolchilik, tegirmonchilik, yog' bosish, to'quvchilik, kashtachilik, do'ppi tikish kabi hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Shahar atrofidagi yarim o'troq aholi bilan shaharning o'troq aholisi savdo-sotiq bilan shug'ullangan, ko'plab hunarmandchilik buyumlari, qo'y, echki, qoramol kabi hayvonlar, shuningdek, to'qimachilik va charm sanoati uchun zarur bo'lgan xomashyo –jun bilan savdo qilgan.⁶

E'tirof etish lozimki, O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar, hududiy kelishmovchiliklar, g'arbiy to'qnashuvlar yuz berib tursa-da, moddiy ehtiyojlar tufayli o'zaro savdo-sotiq olib borish, o'zaro xo'jalik aloqalari o'rnatish uzluksiz davom etgan. Shu sababli xonliklar o'rtasida savdo-sotiq yo'lga qo'yilib, hech qachon butunlay

⁵ Rajabov Shohizamon Nusrat o'g'li "Buxoro amirligida tashqi siyosat va diplomatiyaning rivojlanishi tarixidan"

Buxoro davlat universiteti magistri

⁶ Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li "XIX asrda xonliklarning o'zaro savdo munosabatlari"

to`xtamagan va bunda savdo yo`llari muhim ahamiyat kasb etgan. O`zaro urushlar davomida, har bir hukmdor savdo yo`llariga yagona hukmronlik va homiylik qilishga intilib kelgan. Savdo aloqalarining yuksalib borishida qadimiy karvon yo`llarining o`ziga xos ta`siri bo`lib, bu yo`llar XIX asrning o`rtalarigacha savdo-sotiq rivojida muqim rol o`ynab kelgan. O`rta Osiyo xonliklari o`rtasidagi o`zaro savdo yo`llari tekisliklar, taqirliklar, baland-pastliklar, qumliklar, tog`lik joylar, qir-adirlar, jarliklar, dovonlar orqali o`tganligi uchun ularni qat`iy nazorat qilish ishi qiyinchilik tuqdirardi. Ayniqsa, mavsumiy muammolar, ba`zi yo`nalishlarning faqat mavsumiy amal qilishiga sabab bo`lgan. Hamma vaqt ham yo`llar xavfsizligi to`liq ta`minlanmagan. Odatda savdo yo`llari davlat xazinasini hisobidan ta`mirlanmasdi, ko`p hollarda hashar yo`li bilan ular qurilar, ta`mirlanib turilardi. O`rta Osiyo xonliklari o`rtasidagi o`zaro savdo yo`llari o`zining tuzilishi, xususiyatiga ko`ra karvon yo`llari va suv yo`llariga bo`lingan. Ichki savdoda ot- arava yuradigan yo`llardan ham foydalanilgan, ammo ular juda kam edi. Ichki savdo-sotiq asosan yuk ortilgan hayvonlar yuradigan yo`llar orqali olib borilib, savdo yo`llarida asosan, ot, tuya, xachir, ba`zan esa eshaklardan ham foydalanilgan.⁷

XIX asrning 70-yillaridayoq Buxorodagi barcha ichki bozorlar paxtadan tayyorlangan rus tovarlari bilan to`ldirildi. Eng muhimi, aynan mana shu davrga kelib, bozorlarda ushbu tovarlarni oldingidek tatarlar emas, balki Buxoro ichki bozorlarini endi aynan rus millatiga mapsub bo`lgan savdogarlar egallab olib, o`zlari savdo qilishmokka edi. Qisqa muddat ichida, ya`ni XIX asrning 70–90-yillarida Buxoro iqtisodiy hayoti uchun muhim bo`lgan deyarli barcha sanoat mahsulotlari jumladan temir, mis, latun, qalay, cho`yan qozonlar, misdan yasalgan mollar, qog`oz, qo`rg`oshin, bo`yoqpar, ipaklar, shamlar, chinni buyumlar va boshqa ko`plab hayotiy tovarlar chor Rossiyasidan olib kelinadigan bo`lindi. Bir so`z bilan aytganda, iqtisodiyotining ichki bozorlarida iqtisodiy sohada hukmronlikni qo`lga kiritish uchun avjga chiqqan Rossiya Angliya raqobati ularning o`zaro keskin kurashlariga olib keldi va ushbu kurashni bevosita boshlagan ruslar bunda asta-sekinlik bilan to`la ustunlikka ormshishga va Buxoro ichki bozorlarining to`la nazoratini o`z qo`llariga kiritishga muvaffaq bo`lishdi. 1881- yilga kelib, Buxoro bozorlarida ruslar va rus tovarlari to`la gegemonlikni qo`lga kiritib, yagona monopol hukmronlik qilish huquqiga ega bo`ldi. Ushbu holat yuzaga kelganligining isbotini o`sha paytda Rossiya hukumatinin yirik ma`murlardan biri hisoblangan diplomatamaldor Charikovning quyidagi so`zlaridan ham yaqqol ko`rishimiz mumkin. «Rus tovarlari amirlikda boshqa davlat tovarlariga qaraganda ancha ustunlikka ega. U asta-sekinlik bilan xorijiy davlatlar tovarlarini birinketin siqib chiqarib, ularni o`rnini juda tez progressiv usulda egallab olmoqda. Chor Rossiyasi hukumati, eng avvalo uning Turkiston o`lkasidagi ma`murlari Buxoro amirligining ichki va tashqi iqtisodiy masalalari va hayotiga to`g`ridanto`g`ri aralashib, dastlabki yutuqlarga erishgach amirlik ichki bozorlarini deyarli to`la qo`lga kiritib, savdo oboroti ko`rsatgichlarini oshirib olgandan so`ng, zo`r berib bu ko`rsatgichlarni ko`paytirishga harakat qila boshlashdi. Ushbu

⁷ Rahmatova Feruza Quدرات qizi “O`RTA OSIYO XONLIKLARI O`RTASIDAGI SAVDO YO`LLARI.” Namangan davlat universiteti talabasi

yutuqlarni yanada mustahkamlash uchun yangidanyangi imkoniyatlar qidira boshlandi. Eng muhimi, ushbu yutuqlardan rus hukumati bilan bir qatorda, undan rus burjuaziyasi ham katta manfaatdor edi. Mana shuning uchun ham, XIX asrning 80–90-yillarida bu borada rus burjuaziyasi ham rus hukumati oldiga o'zining yangi talablarini qo'ya boshladi. Natijada O'rta Osiyoda temir yo'llar qurilishi va flotiliya shakllanishiga erishildi. Kaspiyorti temir yo'li qurilgandan so'ng va Amudaryoda kemalar qatnovi yo'lga qo'yilgach, chor Rossiyasining butun O'rta Osiyo bilan, shu jumladan, Buxoro amirligi bilan ham rus sanoati ishlab chiqargan mollar bilan savdo qilish aylanmasi (oboroti) juda tez sur'atlar bilan oshib borishiga keng imkoniyatlar yuzaga keldi. 1890-yili Buxoro amirligiga Rossiyadan un, shakar, manufaktura, choy, kerosin, bo'yoqlar, arpa, chinni idishlar va boshqa turdagi olib kelingan tovarlarning umumiy qiymat miqdori 2 mln 119 ming 862 nudni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 1891-yilda 2 mln 480 ming 277 pudni tashkil etdi. O'z navbatida, chor ma'murlari Buxoro amirligidan eng sifatli va xaridorgir tovarlarni arzon bahoda olib, o'z yurtlariga – Rossiyaga olib ketishdi. A.I.Remezning bergan ma'lumotlariga qaraganda, 1880–1881-yillarda Buxoro amirligidan Rossiyaga 4 ming pud qorako'l teri, 410 ming pud paxta, 6 mln 100 ming pud sitrar urug'i, 4 ming pud qog'ozdan eshilgan ip va 0,8 ming pud xalatlar olib ketilgan. Ushbu keltirilgan raqamlar faqat Rossiya markaziga olib ketilgan mollar ko'rsatkichi hisoblanadi. I.A.Remez ushbu olib ketilgan mollar hisobiga Sibir, Kaspiyorti viloyati va Turkiston o'lkasi shaharlariga olib ketilgan mollar yig'indisini qo'shmagani.⁸

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkin-ki, Buxoro amirligining o'z davrida uzoq va yaqindagi xorijiy davlatlar bilan olib borgan tashqi savdo munosabatlarini o'rganish jarayonida biz nafaqat Buxoro amirligining iqtisodiyoti haqida, balki ushbu davlatning madaniyati, ijtimoiy va qolaversa harbiy salohiyati haqida ham ma'lumot olishimiz mumkin. Ayniqsa, Amir Sayyid Olimxon davrida xalqaro elchilik munosabatlari anchayin kengayib, hattoki Hindiston orqali Angliyaga maktub yo'llab, bolsheviklar zulmiga qarshi kurashda yordam berishni so'raganligi ham manbalarda qayd qilib o'tilgan. Boshqa davlatlar bilan olib boriladigan har yillik tashqi savdo aylanmasi amirlik yalpi ichki daromadining sezilarli qismini tashkil etgan. Aynan shu sababli deyarli barcha amirlar davrida deyarli qolgan barcha sohalar kabi tashqi va ichki savdoni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan.

REFERENCES

1. Rahmatilloev Nusratillo Hikmatillo o'g'li "Buxoro amirligida soliq tizimi" *samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali*, 1(3), 115–121.
2. Ashurov, O. (2022). QO'QON XONI MUHAMMADALIXON DAVRIDA SAVDO MUNOSABATLARI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(24), 107–108.

⁸ Toshpo'latova Mohinabonu "BUXORO AMIRLIGI IQTISODIY HAYOTI (ISHLAB CHIQUARISH KUHLARINING O'SISHI)" Buxoro davlat universiteti 4-kurs talabasi

3. Rahmatilloev Nusratillo Hikmatillo o'g'li. "Buxoro amirligida soliq tizimi tarixi va tarixshunosligi" magistrlik dissertatsiyasi. Buxoro- 2024. 29-30 betlar

4. Rahmatilloev Nusratillo Hikmatillo o'g'li. "Buxoro amirligidagi savdo munosabatlari chet el sayyohlari nigohida" Pedagogik akmeologiya 3-nashri. 2024-yil

5. Rajabov Shohizamon Nusrat o'g'li "Buxoro amirligida tashqi siyosat va diplomatiyaning rivojlanishi tarixidan" Buxoro davlat universiteti magistri

6. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li "XIX asrda xonliklarning o'zaro savdo munosabatlari.

7. Rahmatova Feruza Quadrat qizi "O`RTA OSIYO XONLIKLARI O`RTASIDAGI SAVDO YO`LLARI." Namangan davlat universiteti talabasi

8. Toshpo'latova Mohinabonu "BUXORO AMIRLIGI IQTISODIY HAYOTI (ISHLAB CHIQRISH KUCHLARINING O`SISHI)" Buxoro davlat universiteti 4-kurs talabasi